

ADABIYOT O'QITUVCHISI KOMPETENTLILIGINING NAZARIY-METODIK ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH

Madina ABDUQODIROVA.

ORCID: 0009-0000-8461-2933

O'zbek tili va adabiyoni universiteti tadqiqotchisi.

E-mail: @madinaabdukodirova023@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot zamonaviy adabiy ta'lim jarayonida adabiyot o'qituvchisi kompetentliligini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarining ilmiy-nazariy talqinlari tahlil qilingan hamda ular o'rtasidagi farqlar qiyosiy jadval asosida ochib berilgan. Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, muallif tomonidan kompetentlilikning integral ta'rifi ishlab chiqilgan va uning tarkibiy qismlari (shaxsiy, maxsus va ijtimoiy kompetentlilik) tasniflangan. Tadqiqot doirasida adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish orqali o'quvchilar badiiy tafakkurini, estetik didini hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kasbiy mahoratini diagnostika qilish va ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kompetentlilik, kompetensiya, shaxsiy kompetentlilik, maxsus kompetentlilik, ijtimoiy kompetentlilik.

DEVELOPMENT OF THEORETICAL-METHODICAL BASIS OF THE COMPETENCE OF A LITERATURE TEACHER

Madina ABDUQADIROVA.

ORCID: 0009-0000-8461-2933

Researcher at the University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: @madinaabdukodirova023@gmail.com

Annotation. This study is devoted to highlighting the theoretical and methodological foundations of the formation of the competence of a literature teacher in the process of modern literary education. The article analyzes the scientific and theoretical interpretations of the concepts of "competence" and "competence" and reveals the differences between them on the basis of a comparative table. Based on the specifics of the literature teacher's activity, the author developed an integral definition of competence and classified its components (personal, special and social competence). Within the framework of the research, the mechanisms for the formation of students' artistic thinking, aesthetic taste, and spiritual and moral values through the development of professional competence of a literature teacher are scientifically and practically substantiated. The results of the research are of significant scientific and practical importance in diagnosing the professional skills of teachers and raising the quality of education to a new level.

Keywords: competence, competence, personal competence, special competence, social competence.

РАЗРАБОТКА ТЕОРЕТИЧЕСКО-МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ЛИТЕРАТУРЫ

Мадина АБДУКАДИРОВА.

ORCID: 0009-0000-8461-2933

Научный сотрудник Университета узбекского языка и литературы.

E-mail: @madinaabdukodirova023@gmail.com

Аннотация. Данная работа посвящена освещению теоретико-методологических основ формирования компетенции преподавателя литературы в процессе современного литературного образования. В статье анализируются научно-теоретические интерпретации понятий «компетентность» и «компетенция» и выявляются различия между ними на основе сравнительной таблицы. Исходя из специфики деятельности преподавателя литературы, автор разработала целостное определение компетенции и классифицировала ее компоненты (личностная, специальная и социальная компетентность). В рамках исследования научно и практически обоснованы механизмы формирования художественного мышления, эстетического вкуса и духовно-нравственных ценностей учащихся посредством развития профессиональной компетентности учителя литературы. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для диагностики профессиональных навыков учителей и повышения качества образования до нового уровня.

Ключевые слова: компетентность, компетенция, личностная компетентность, специальная компетентность, социальная компетентность.

Kirish. Xalqaro pedagogik amaliyotda, ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv o'tgan asrning 60-yillaridan shakllana boshlangan bo'lsa, bugungi kunda u ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy metodologik omil sifatida e'tirof etilmoqda [Muslimov, 2013, 9]. So'nggi yillarda ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham Davlat ta'lim standartlarida, ta'lim shakllarida kompetensiyaviy tamoyillarga ko'ra tuzilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda [Mirzayeva, 2020, 23].

Materiallar va metodlar. Mazkur maqola adabiyot o'qituvchisi kompetentligi muammosini nazariy jihatdan o'rganish va umumlashtirishga bag'ishlangan bo'lib, ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish metodologiyasiga asoslangan. Ilmiy izlanishlarning informatsion bazasini pedagogika, psixologiya va adabiyot o'qitish metodikasi sohasida yaratilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda dissertatsiya materiallari tashkil etdi. Manbalarni tanlab olishda adabiyot o'qituvchisi kompetensiyasiga bevosita aloqadorligi, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning fundamental ilmiy ishlari hamda so'nggi yillarda nashr etilgan dolzarb ilmiy-metodik adabiyotlar mezon sifatida olindi. Ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, kompetentlik tushunchasining mohiyatini ochib berish uchun nazariy tahlil va adabiyotlar sharhi; turli olimlar va metodistlarning ta'riflarini o'zaro solishtirish uchun qiyosiy tahlil; tahlil qilingan barcha ilmiy fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqarish uchun sintez metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodologiya yig'ilgan ma'lumotlarni xolisona o'rganish va ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi.

Muhokama. Adabiyot o'qituvchisi kompetentligining nazariy-metodik poydevorini shakllantirish, birinchi navbatda, ta'limiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan «kompetentlik» tushunchasining fundamental mazmuni, asosiy xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilishni taqazo etadi. Shu sababli maqolada ushbu tushunchaning mohiyatini ochiqdash adabiyot o'qituvchisi uchun tatbiqini ishlab chiqish maqsadida A. V. Xutorskoy [1], S. Y. Shishov [2], N. M. Boritko [3], S. I. Ojigov [4], Yu. N. Moskvichev [5], M. L. Birnbaum va E. Daily [6], M. Aiman [7], A. K. Markova [8], V. Jeltov [9], M. A. Choshanov [10], Yu. G. Tatur [11], N. Muslimov va boshqalar [12], O. Qo'ysinov [13], U. Tursunova [14], M. Xidirova [15] larning ishlaridagi kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini bir-biridan farqlashga doir qarashlarni tahlil qildik. Ular ichida kompetensiyaga bir tomondan ma'lum bir sohada ijobiy natijalarga erishish uchun oldindan belgilab qo'yilgan, ish joyiga xos bo'lgan sifat, kasbning o'ziga xos xususiyatlari, faoliyatning ijtimoiy jihatdan joriy etilgan modeli, ma'lum bir sohadagi faoliyatning obyektiv belgilarini o'z ichiga olgan kasbiy mezon sifatida qaralasa (A. V. Xutorskoy, N. M. Boritko, Yu. N. Moskvichev), ikkinchi tomondan uning o'zi bila oladigan va qila oladigan masalalari, vazifalari, huquqlari doirasi, yetarli yoki yaxshi malakaga egalik; bilim, ko'nikma, qobiliyat, munosabat va xatti-

harakatlar majmui; subyektdan tashqari fenomenon, unga egalik qilish obyektini sifatida ta'sir o'tkazuvchi; doimo yangiliklardan xabardor bo'lish, o'z ustida ishlash, faoliyatini faol amalga oshirish imkoniyati sifatida insonning shaxsiy salohiyati bilan bog'liq holda ta'riflanadi (S. I. Ojigov, Marvin L. Birnbaum va E. Daily, Muhammad Aiman, V. Jeltov, M. A. Choshanov, U. Tursunova). Shuningdek, S. Y. Shishov tomonidan kompetentlikka, biror (kasbiy) vazifani bajarish layoqatiga va imkoniyatga egalik, uni amalga oshirishga tayyorlik, xususan ma'lum bir harakatlar natijasi sifatidagi fikrlar bildirilgan. Ular asosida kompetentlikning umumiy ta'rifini ishlab chiqadigan bo'lsak, uni *fanga oid bilimlar, shaxsiy-psixologik sifatlar, ko'nikmalar, ma'lum faoliyatda amaliy tajriba asosida shakllantirilgan, ish faoliyatida duch kelgan muammolarni hal eta olish qobiliyatiga egaligi va tayyorligining yaxlit ko'rinishi, shaxsning integrativ va jamlangan tavsifini bildiruvchi, kasbiy faoliyatda namoyon bo'luvchi xususiyat* sifatida tahlil qilish mumkin.

Adabiyot o'qituvchisiga xos bo'lgan kompetentlikning o'zi nima ekanligini aniqlashtirishda faqat bir yoqlama ta'lim natijasi, kasbiy mezon yoki shaxsiy salohiyat sifatida emas, balki ularning barini o'z ichida aks ettiradigan xususiyat sifatida kiritishni lozim ko'rdik. Chunki adabiyot o'qituvchisi uchun ta'lim berish davomida belgilab qo'yilgan kasbiy mezonlar (adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy tanqid bo'yicha fundamental bilimga ega bo'lish, interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, adabiyot darslarida zamonaviy AKT vositalaridan samarali foydalanish, har bir o'quvchining badiiy idrokiga mos ravishda dars jarayonini tashkil etish va boshqalar) mavjud bo'lib, ularni amalda qo'llay olishida shaxsiy salohiyati asosiy o'rinni egallaydi. Shu asosda faoliyat yuritish esa adabiyot o'quv fani orqali o'quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirish, estetik didni tarbiyalash hamda yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishdek ko'zlangan maqsadga erishishda – ta'lim natijasini ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. Adabiyot o'qituvchisining kompetentligi – *o'qituvchining filologik va pedagogik bilimlari, yuksak estetik didi va shaxsiy-psixologik sifatlarining uyg'unligiga asoslangan, badiiy matnni tahlil va talqin etish, ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni innovatsion texnologiyalar bilan boyitish hamda o'quv faoliyatidagi murakkab muammoli vaziyatlarni ijodiy va ongli bartaraf etish qobiliyatini aks ettiruvchi integral kasbiy tavsifdir.* Kompetentli adabiyot o'qituvchisida kasbiy kompetensiyalarni egallash natijasida shakllangan o'ziga xos shaxsiy sifatleri, bilim, ko'nikma va malakalar majmuyiga ega hamda pedagogik faoliyat mezonlari asosida maksimal ta'limiy natijalarga erishishga qodir bo'lgan pedagogik shaxs xususiyati ham aks ettiradi. Adabiyot o'qituvchisi ushbu xususiyatga tinimsiz mehnati, kasbida fidoyiligi, cheksiz matonati orqali erishadi va shu yo'lda o'z kompetentligini namoyon qiladi.

Akademik ilmiy muhitda har xil ma'nolarga ko'ra ta'riflangan "kompetensiya" va «kompetentlik» atamalarini turli xil ta'riflarni ko'rib chiqib, adabiyot o'qituvchisiga xos xususiyatlarni quyidagicha ishlab chiqdik:

ADABIYOT O'QITUVCHISI			
Kompetensiyasi	Kompetentligi		
Natijalarga e'tibor qaratish	Davlat tomonidan belgilangan o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan talablar, kompetensiyalarga e'tibor qaratish	O'quvchining xulq-atvor yoki xatti-harakatlariga e'tibor qaratishi	O'qituvchi adabiyot darslari orqali o'quvchidagi insoniy fazilatlar va xulq-atvorni qanday ijobiy tomonga o'zgartirayotganiga ahamiyat qaratadi

Kasbiy vazifalar doirasidagi xususiyatlarni tavsiflaydi	Metodik-didaktik – darsni rejalash, o'quv dasturi va standartlari asosida tashkil qilish, o'quvchilarda nutqiy savodxonlikni ta'minlash; natijalarni baholash	Insonga xos xususiyatlar	Adabiyot o'qituvchisini o'z kasbiy xususiyatlariga e'tibor qaratishi, malakasini oshirishi, adabiy seminar treninglarda ishtirok etishi
Ishni bajarish uchun zaruriy malaka va bilim talablarini o'z ichiga oladi	Fundamental adabiy bilim va savodxonlik, metodik mahorat, notiqlik, pedagogik odoblarga ega bo'lishi	Yuqori ish samaradorligiga ega professional adabiyot o'qituvchisiga xos ichki sifatlar	Adabiyot o'qituvchisining adabiyotga va badiiy so'zga bo'lgan muhabbati, pedagogik sezgirligi, madaniyati, ta'sirli so'zlash qobiliyati, ichki energiya va kreativlik bilan o'quvchilarga estetik zavq va ma'naviy ozuqa berishi
Faqat adabiyot oid bo'lgan maxsus bilimlarni egallashga qaratilgan	Boshqa sohalardan farqli ravishda adabiyot o'qituvchisining mutaxassislik bilimlari, tahlil va talqin qilish ko'nikmalari, og'zaki va yozma nutq savodxonligi haqida bilimlarga ega bo'lish	Shaxslararo uzatiladigan tajribalariga qaratilgan	Dars o'tish metodikasi, AKTdan foydalanish, interfaol o'yinlarni tashkil qilish kabi universal ko'nikmalarni qamrab oluvchi umumkasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish
Adabiyot o'qituvchisi kasbiy faoliyatdagi samaradorligi orqali baholanadi	Fan olimpiadalari o'quvchilarning egallagan natijalari, xalqaro sovrindorliklari, o'quvchilarini savodxonlik ko'rsatkichi, dasturni o'zlashtirishi orqali baholanadi	Xatti-harakatlari va munosabatlari orqali baholanadi	O'quvchilarini yutuqlarida, savodxonlik ko'rsatkichlarida, yuqori natijalarga erishishida o'qituvchining shaxsiy sifatleri, baxs-munozaralarda sabrliligi, muvozanatni ushlay olishi, badiiy tahlil jarayonlarida xolisona yondasha olishi kabi

			xususiyatlari orqali belgilanadi.
Adabiyot fanini o'rgatishga yo'naltirilgan	O'qituvchining darsni texnik jihatdan mukammal o'rgatishi va o'quv dastur talablarini bajarishi	Adabiyot orqali o'quvchini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyashga yo'naltirilgan	O'qituvchining badiiy so'z orqali o'quvchi qalbini zabt etishi, uni estetik jihatdan tarbiyalashi va shaxs sifatida shakllantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi

Umuman olganda, adabiyot o'qituvchisining kompetensiyasi nima qilish (funksional bajaradigan ishlar) va adabiyot o'qituvchisi kompetentligi yoki kompetentli adabiyot o'qituvchisi esa qay darajada bajara olishi (shaxsiy kasbiy yetuklik) deya izohlash mumkin. Adabiyot o'qituvchisi kompetentligi kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kerak bo'ladigan harakatlar, muammolarga yechim topish va qarorlar qabul qilish hamda o'zini professional darajada to'g'ri harakatlantirish qobiliyatini ham ifodalaydi. Shuningdek, ushbu atamani nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Kompetentlik integral murakkab tarkibga egaligiga ko'ra O. Qo'ysinov tomonidan integrativ, ijtimoiy-psixologik, boshqaruv faoliyatining muayyan sohalarini boyicha kompetentlikka; mazmuni va tuzilishiga ko'ra kognitiv, faoliyatli, operatsion-texnologik, shaxsiy, ma'naviy-motivatsion, releksiv, darajalanishiga ko'ra esa bazaviy, instrumental va operatsion-texnologik darajalariga ajratiladi [Qo'ysinov, 2019, 58]. Tadqiqotchi I. Soliyevning fikricha kompetentlik maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual turlarga ajratilsa, N. Muslimov tomonidan B. G. Anan'ev, V. N. Myasishev, N. V. Kuzminina, A. K. Markova ishlarini tahlil qilish asnosida uch asosiy guruhi qayd etiladi:

1. O'z-o'ziga, shaxs sifatida, hayot faoliyati subyekti sifatida munosabatda bo'ladigan kompetentlik;
2. Insonning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlariga taalluqli kompetentlik;
3. Insonning barcha turdagi va shakldagi faoliyatiga taalluqli kompetentlik [Muslimov, 2013, 31].

Tadqiqotchi O. Qo'ysinov ishida kompetentlik murakkab xususiyatli, turli darajalarga ega xususiyat sifatida qaralgan bo'lib, har tomonlama qamrab olingan ta'riflarni ishlab chiqishga e'tibor beriladi. Lekin biz, adabiyot o'qituvchisining kompetentligining tarkibiy qismlarini N. Muslimov, I. Soliyev tasniflarida berilgan turlar asosida ajratib talqin qilishni muvofiq topdik va uning shaxsiy, maxsus va ijtimoiy kompetentlik turlariga ajratdik.

Adabiyot o'qituvchisining *shaxsiy kompetentligi* – bu pedagogning o'zini jamiyat va ta'lim jarayonida erkin, yetuk shaxs sifatida namoyon eta olishi, o'zining ichki ma'naviy salohiyati, estetik qadriyatlari hamda insoniy fazilatlarini orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olish qobiliyati.

Adabiyot o'qituvchisining *maxsus kompetentligi* – bu pedagogning o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, nazariyasi hamda tanqidchiligini mukammal bilishi, badiiy asarlarni estetik va tahliliy yondashuvlar asosida o'quvchilar ongiga yetkaza olishi, muayyan asar matnidagi yashirin ma'nolar va qahramonlar ruhiyatini ochib berishga qaratilgan ixtisoslashgan (boshqa sohaga ko'chirib bo'lmaydigan) fundamental bilim va amaliy ko'nikmalar majmui.

Adabiyot o'qituvchisining *ijtimoiy kompetentligi* – bu pedagogning maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa va ota-onalar bilan ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi, jamoatchilik

fikrini hisobga olgan holda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oila va maktab aloqalarini mustahkamlash qobiliyatidir.

Xulosa. Umumlashtirib aytganda, adabiyot o'qituvchisi kompetentligining nazariy asoslarini aniqlash va uning tarkibiy sifatlarini tizimlashtirish zamonaviy ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning fundamental shartidir. Ushbu kompetentlikka xos xususiyatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish o'qituvchining kasbiy mahoratini diagnostika qilish, pedagogik muammolarni ijodiy hal etish hamda o'quvchilarda badiiy tafakkur va estetik didni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хуторской, А. В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. Электронный ресурс. / А. В. Хуторской: <http://www.eidos.ru/journal/2002/043.html>
2. Шишов С. Е. Мониторинг качества общего образования в информационном обществе. – Москва: Педагогика, 2008.
3. Боротко, Н. М. Профессионально-педагогическая компетентность педагога [Электронный ресурс] / Н. М. Боротко//Интернет-журнал «Эйдос». – 2007. – 30 сентября. — Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2007/0930-10.htm>.
4. Даминов О. О. Касб таълими ўқитувчиларининг тайёрлаш жараёнида касбий компетенцияларни шакллантириш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. Фалс. Док. (PhD). –Тошкент, 2020.
5. Москвичев, Ю. Н. Методология компетентностного подхода в подготовке специалистов физической культуры и спорта / Ю. Н. Москвичев // Научные и методические проблемы физического воспитания, спорта и оздоровительной физической культуры. – Волгоград: ВГАФК, 2010. – Вып. 16. – С. 31 – 39.
6. Birnbaum, Marvin & Daily, Elaine. (2009). Competency and Competence. Prehospital and disaster medicine. 24. – 1–2. 10.1017/S1049023X00006452.
7. Arifin, M. A. (2021). Competence, Competency, and Competencies: A Misunderstanding in Theory and Practice for Future Reference. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 11(9), 755–764.
8. Маркова А. К. Психология профессионализма. – Москва:1996.
9. Желтов, П. В. (2010). Содержание и структура понятия «Базовые профессиональные компетенции специалиста». Агроинженерия, (3), 138–142.
10. Чошанов М. А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения: Методическое пособие. – М.: Народное образование, 1996.
11. Татур, Ю. Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста / Ю. Г. Татур // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 3.
12. Муслимов Н. А., Қўйсинов О.А ва бошқ. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. –Тошкент: "Fan va texnologiya", 2013.
13. Қўйсинов О. А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. Пед. фан. доктори (DSc) ...диссертацияси. –Тошкент. 2019.
14. Tursunova U. A. Bo'lajak iqtisodiyotchilarda kasbiy yo'naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi. Ped.fan.fals.dok. (PhD) diss. –Toshkent, 2023.
15. Xidirova M. Q. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda andragogik kompetentlikni takomillashtirish. Ped.fan. fals.dok. ... diss. –Toshkent, 2023.